

Darslikdan juftlikda ishlash uchun „Savollar gulshani“ mashqi o‘tkaziladi.

Sharti: ertak asosida savollar tuzing. Savollaringizni o‘qib bering va do‘stlaringizni javoblarini eshiting.



3. Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

- “Dars sizga yoqdimi?”, “Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz? “ savollariga javob beriladi.

Darsdagi ishtirokiga ko‘ra o‘quvchilar baholanadi.

 **Uyga vazifa:** Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Ertak mazmuniga mos maqollar toping.

2-mavzu: Hayvonlar haqida ertaklar

Dars maqsadi:

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarni “Och bo‘ri” o‘zbek xalq ertagi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: xalq og‘zaki ijodi ertak turlari haqida ma’lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, fonetik usul, rolli o'yin

Dars jihozi: suratlar va plakatlar

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-O'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriq so'raladi.

-Mavzuga qiziqtirish: "**Chaqiruv va javob**" texnikasi

Ushbu usul o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilishda juda ham qulay bo'lib, uni quyidagicha ko'rinishlarda olib borish mumkin:

1-variant: Ritm orqali:

Chaqiruv (o'qituvchi): "Qani bolalar, birgalikda she'r o'qiymiz. Men boshlayman, siz esa davom ettirasiz!"

O'qituvchi: "Qushlar uyg'onadi tongda, ..."

Javob (o'quvchilar): "... daraxtlar yashnar bog'da!"

Ushbu usulda o'quvchilar keyingi qatorni davom ettiradi yoki o'zlari javob variantlarini topadilar.

2-variant: Savol-javob ko'rinishida:

O'qituvchi: "Kitobdan nima o'qiymiz?"

O'quvchilar: "Ertaklarni o'qiymiz!"

O'qituvchi: "Ertakda kimlar bo'ladi?"

O'quvchilar: "Qahramonlar, dostonlar!"

Bu bolalarning javob berishga tayyor turishini ta'minlaydi.

3-variant:Tayanch so'zlar bilan:

O'qituvchi: "Men bir so'zni aytaman, siz unga bir so'z bilan ta'rif berasiz!"

O'qituvchi: "Kitob!"

O'quvchilar: "Bilim!"

O'qituvchi: "Savod!"

O'quvchilar: "O'qish!"

4-variant: *Qo'shiqqa asoslangan:*


O'quvchilar uchun yoshiga mos qisqa va sodda qo'shiq tanlanadi.

Masalan:

O'qituvchi: "Biz kitobni sevamiz, to'g'rimi?"

O'quvchilar: "To'g'ri, to'g'ri, ha to'g'ri!" (ritmik ohangda)

Ushbu usullar darsni qiziqarli boshlashga yordam beradi va o'quvchilarning darsga e'tiborini jalb qiladi. Bolalar ushbu texnikaga jalb etilganda o'zlarini faollashtirilgan his qiladilar.




O'tilganlarni takrorlash. Aytilgan so'zlar ichida ortiqchasini aniqlang.

Qo'zi, sigir, uloq, bo'ri.

Zolushka, Oppog'oy, Ur to'qmoq

2.Asosiy qism(dars mazmunini tushuntirish va mustahkamlash):



Amaliy topshiriq:"Mendan so'ra" mashqi.

Partadoshingizga eng yaxshi ko'rgan ertagi haqida so'rang.

1.Partadoshingizga qaysi ertak yoqadi?

2. Bu ertakni u o'qiganmi?

3. Ertakdagi qaysi qahramon unga ko'proq yoqadi?

Mavzuni tushuntirish. Doskaga ertak rasm ilish tavsiya qilinadi. Masalan, "Egri va To'g'ri", "Ur to'qmoq", "Tulki va bo'ri"

- Siz ertaklarni juda yaxshi bilasiz. Chunki bolaligingizdan ertak eshitib katta bo'lyapsiz. Bu ertaklarni dono xalqimiz yaratgan. Xalq ertaklari bir necha turlarga bo'linadi. Hayotiy ertaklar ularni yana maishiy ertaklar deyishadi. ("To'g'ri va Egri" ertagi) Qahramonlari jonivorlar bo'lgan hayvonlar haqidagi ertaklar. ("Tulki va Turna", "Bo'ri va yetti uloqcha") Sehrli-afsonaviy ertaklar bo'lib, unda real hayotda bo'lmaydigan sehrli voqea, predmet kabilari ishtiroki kuzatiladi. ("Ur, to'qmoq", "Oltin tarvuz", "Uchar gilam")

Matn bilan ishlash. Dastlab o'quvchilar "Och bo'ri" o'zbek xalq ertagini **fonetik usulda** mustaqil o'qiydilar. Ularning o'qishlari uchun vaqt beriladi.

Fonetik usul yordamida o'qishni o'rgatish – bu o'quvchilarga so'zlarni talaffuz qilish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish uchun harflar va tovushlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatish usulidir. Bu usulda har bir harfning (yoki harflar birikmasining) tovushiga e'tibor qaratiladi va ushbu tovushlarni birlashtirib, so'zlarni o'qish o'rgatiladi.

Keyingi bosqichda o'quvchilar ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.



Bo'ri

Xo'roz

Qo'zi

Ertak yuzasidan savol-javob:

1. Ertak qanday boshlandi?
2. Xo‘roz va bo‘ri bilan qanday voqea yuz beribdi?
3. Qo‘zi bo‘ridan qanday qutulibdi?
4. Nima deb o‘ylaysiz, bo‘rining och qolishiga nima sabab bo‘lgan?

Matndagi notanish so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Lug‘at bilan ishlash.

mahkam – zo‘r kuch bilan, qattiq.

nochor – chorasiz, noiloj

sarson-sargardon – ovora

“Tanlab o‘qish” mashqi. Izohli lug‘atda berilgan so‘zlar ertakdan topib o‘qitiladi va ularni o‘zgartirib gaplar qayta o‘qiladi. Gaplar mazmunida o‘zgarishlar bor yoki yo‘qligi aniqlanadi.

Gaplar qaysi qahramonga tegishli ekani aniqlanadi.

Yeydigan bo‘lsang kashnich,
piyoz bilan yeginki, dunyoda
bir maza qilgin.

Men
seni
yeyman.

Yaxshisi borib konning
tuzidan olib kel, shundan
keyin go‘shimni maza qilib
yeb, armondan chiqasan.

Mashq daftari bilan ishlash.

Ertak matnidan foydalanib tushib qolgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yiladi.

Bo‘ri **kashnich**, **piyoz**ni qiynalib-qiynalib, **zo‘rg‘a** topib kelibdi. Qarasa, **xo‘roz** yo‘q emish. U **yoqqa** yuguribdi, bu **yoqqa** yuguribdi, nihoyat xo‘rozni topolmay, **nochor** yo‘lga tushibdi.

2-topshiriq. Ertak matnidan quyidagi fikrlarni ifodalovchi gaplar topib yoziladi.

a) Bo‘ri xo‘rozni ushlash uchun astoydil harakat qilibdi.

Bo‘ri xo‘rozni ushlash payiga tushibdi.


b) Qo‘zini rosa qidiribdi, topolmay yo‘lini davom ettiribdi.

Qo'zini toza izlabdi, axiri topolmay yana yo'lga tushibdi.

3-topshiriq. Raqamlarni ketma-ketlikda bir-biriga ulang. Qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitib, ertak mazmuniga mos rasm ishlanadi. (Bu topshiriq uy vazifasiga berilsa ham bo'ladi)

Darslikda berilgan topshiriqlar bajariladi.

Topishmoqlarning javobini topiladi.



1. Kuchukday ko'rinishi,
Pichoqday o'tkir tishi.
Vahshiy hayvondir o'zi,
Yeydi qo'y-u va qo'zi. **(Bo'ri)**

2. To'rt oyoqli,
Temir tuyoqli.(Ot)
3. Kichkintoygina bo'yi bor,
Aylantirgan to'ni bor.(Qo'y)

- 4.Erta turadi,
Jar chaqiradi. (Xo'roz)

3. Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

- Bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?
- Sizga nima qiziq bo'ldi?

 **Uyga vazifa:** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

3-mavzu: Hayvonlar haqida ertaklar

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni ertak bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ezgulikka intilib yashashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: